

**UDK.: 636.5:577.16:637.547.1**

## **BROYLER TOVUQLARINING MAHSULDORLIK KO'RSATKICHLARIGA IMMUNOFOR BIOSTIMULYATORINING TA'SIRI**

**Ibragimova F.D.** - assistent

**Islomov X.I.** - assistent

**Abdullayeva Sh.** - talaba

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti**

**Annotatsiya:** Ilmiy maqolada Immunofor biostimulyatorining broyler tovuqlariga berilish muddati va dozasini aniqlash bo'yicha preparatlarning ta'sir doiralari berilgan.

**Summary:** The scientific article gives the scope of action of drugs for determining the duration and dose of Immunofor biostimulant for broiler chickens.

**Kalit so'zlar:** Broyler, jo'ja, guruh, biostimulyator, doza, tirik vazn, gramm, saqlanuvchanlik, preparat.

**Key words:** Broiler, chicken, group, biostimulant, dose, live weight, gram, shelf life, drug.

**Mavzuning dolzarbliji.** Respublikamizda parrandachilik subyektlari faoliyati qo'llab quvvatlanib, ularga soliq va bojxona to'lovlaridan qator imtiyozlar berilmoqda. Parrandachilikni yanada rivojlantirish maqsadida, sohaga ilg'or texnologiyalar va innovatsyon ishlanmalar joriy etish, parranda mahsulotlarini qayta ishlashni chuqurlashtirish, ularning turlari va eksport ko'lами kengaytirish, raqobatdosh parranda maxsulotlarini ishlab chiqarish orqali aholini yetarli miqdorda parranda maxsulotlari bilan taminlashga qaratilgan bir qator maqsadli tadbirlar tizimi ishlab chiqarilmoqda. Tovuqchilikda uchraydigan barcha salbiy oqibatlarni oldini olish maqsadida biostimulyatorlik xususiyatiga ega bo'lgan bioaktiv moddalarni qo'lash orqali tovuqlarning saqlanuvchanlik, mahsulorlik ko'rsatgichlarini oshirish bo'yicha bir qator vazifalar yuklatilgan.

**MATERIALLAR VA METODLAR.** Ilmiy tadqiqot ishlarining amaliy tajribalari Samarqand shahari Mingtut mahalla A.Baxodirxon 51 uy shaxsiy xonadonda va klinik tekshiruv ishlari "Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya" kafedrasining ilmiy laboratoriyasida olib borildi. Bu borada tajriba uchun Samarqand viloyati Pastdarg'om tumaniga qarashli "Darg'om parranda fayz" tovuqchilik xo'jaligidan "Ross-308" zotiga mansub bir kunlik 140 bosh jo'jalar olib kelinib tajriba boshlangunicha umumiy gala qilib to'shamalar ustida saqlanib boqildi. Ular toza oziqa bilan hamda oddiy vodoprovod suvi bilan ta'minlandi. Jo'jalar 10 kunlik bo'lganlarida ulardan analoglar qoidasiga rioya qilingan holda tirik vaznlari oddiy tarozida o'lchanib 20 boshdan 7 ta guruh tuzildi. (tirik vazndagi farq  $\pm 5\text{g}$ )

Birinchi guruh jo'jalar nazorat guruhi jo'jalari bo'lib, ular xo'jalik ratsion bilan oziqlangan. Tajribaning "2-3-4-5-6-7" guruhi jo'jalari uchun immunofor va gossiprin preparatlaridan o'zmiz qo'ldan tayyorlagan oziqadan jo'jalarning 10 kunlikdan boshlab, 2-3-4-5-6 tajriba guruhlariga — "Immunofor" preparatidan mos ravishda

100-150-200-250-300 mg/kg oziqa bilan 10-30 kun davomida berib borildi. 7 – tajriba guruhi jo‘jalariga Gossiprin preparatidan 500 mg/kg 15-30 davomida berildi.

### **Immunofor biostimulyatorining broyler tovuqlariga berilish muddati va dozasini aniqlash bo‘yicha olingan natijalar.**

Olib borilgan tajriba va kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, 2 va 3- tajriba guruhidagi parrandalar o‘rtacha immunofor biostimulyatoridan 100-150 mg/kg oziqa bilan 10 kunligidan boshlab 35 kunligigacha olganlarida ularning saqlanuvchanlik darajalari 90%ini tashkil qilib tajriba oxirida tirik vaznining kunlik o‘sishlari 80,4-80,5 grammlarni tashkil qildi. To‘rtinchi va beshinchi tajriba guruhidagi jo‘jalar immunofor biostimulyatoridan 25 kun davomida 200-250 mg /kg oziqasi bilan berilganda ularning saqlanuvchanlik darajalari 100% larni tashkil qilib, tajriba oxirida o‘rtacha 1 bosh tovuq tirik vaznining o‘sishi 89,0 -90,0 grammlarni tashkil etgan bo‘lsa, oltinchi tajriba guruhidagi jo‘jalar oziqasi orqali 300mg/kg miqdorda olganlarida saqlanuvchanlik darajasi 100%ni, ammo o‘rtacha 1 bosh tovuq tirik vaznining o‘sishi 88,4 grammni tashkil qildi va parrandalarda yengil ich ketish holatlari kuzatildi. Yettinchi tajriba guruhidagi jo‘jalar qo‘llanmasiga asosan gossipren immunomadulyatoridan 500mg/kg oziqa bilan 28-33 kunliklarida olganlarida saqlanuvchanlik darajalari 100% ni, tajriba oxirigacha o‘rtacha bir bosh tovuq tirik vaznining kunlik o‘sishi 88,4 grammni tashkil qildi.

Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan. Immunofor biostimulyatorining broyler tovuqlariga berilish muddati va dozasini aniqlash bo‘yicha olingan natijalar. 1-jadval

T/r	Guruhlar nomi	Preparatlar nomi	Dozasi (mg/kg oziqa bilan)	Berilish muddati (kun)	Jo‘jalar bosh soni	Saqlanuvchanlik (% hisobida)	Tirik vaznining o‘sishi (g, hisobida)
1	Qiyosiy nazorat	Preparatsiz xo‘jalik ratsioni	—	Xo‘jalik ratsioni asosida	20	100	88,4
2	Tajriba	Immunofor	100	10-30	20	90	80,4
3	Tajriba	Immunofor	150	10-30	20	90	80,5
4	Tajriba	Immunofor	200	10-30	20	100	89,0
5	Tajriba	Immunofor	250	10-30	20	100	90,0
6	Tajriba	Immunofor	300	15-30	20	100	88,4
7	Tajriba	Gossiprin	500	15-30	20	100	88,4

**Xulosa.** Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan immunofor biostimulyatori broyler tovuqlariga 200-250 mg/kg oziqa bilan berilganda ularning tirik vaznlarini oshiribgina qolmasdan kunlik o‘sishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatganligini inobatga olib uni broyler yo‘nalishidagi parrandachilikda ishlatish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Davlatbaevna, I. F., Davlatbay, I., & Dusmurat, E. (2021). Effectiveness of Coccidiostatics Used in Chicken Coccidiosis and Effect on Morphological Indications of Blood. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 2(5), 151-154.

2. Ibragimova, F. (2022). OQUVCHILARGA CHET TILINI ORGATISHDA YANGI INNOVATSION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(1), 691-698.
3. Safin, M., Ibragimov, D., & Ibragimova, F. (2024). Discussion of the biochemical mechanisms of copper deficiency in Karakul sheep bred in the Hungry Steppe and its prevention. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 95, p. 01048). EDP Sciences.
4. Safin, M., Ibragimov, D., & Ibragimova, F. (2024). Discussion of the biochemical mechanisms of copper deficiency in Karakul sheep bred in the Hungry Steppe and its prevention. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 95, p. 01048). EDP Sciences.
5. Ibragimova, F. D., Daminov, A. S., & Mamadullayev, G. X. (2024). FENSID SINERGITIK ARALASHMALI PREPARATNING TOVUQLAR EYMERIOZIGA QARSHI SAMARALI MIQDORINI VA FAOLLIGINI ANIQLASH. *Yangi O'zbekiston ustozlari*, 2(2), 46-50.
6. Алияров, Д., Ибрагимов, Д., Эшимов, Д., Ибрагимова, Ф., & Тошмуродов, Д. (2021). Влияние иммуномодуляторов на физиологическое состояние организма птиц.
7. Тошмуродов, Д., Эшимов, Д., Ибрагимов, Д., Ибрагимова, Ф., & Алияров, С. (2021). Влияние транквилизаторов на морфологические показатели крови цыплят.
8. Ибрагимова, Ф., Ибрагимов, Д., Эшимов, Д., & Алияров, С. (2022). Эффективность некоторых кокцидиостатиков при эймериозе птиц и их влияния на интенсивности инвазии. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 358-362.
9. Ibragimova, F. D., Daminov, A. S., & Mamadullayev, G. X. (2022). TOVUQLAR EYMERIOZI KOLIBAKTERIOZ BILAN ARALASH KECHISHINING KIMYOPROFILAKTIKASIDA ISHLATILADIGAN FENSID PREMIKS SINERGITIKAR ALASHMALI PREPARATNING O'TKIR VA SURUNKALI ZAHARLILIK DARAJASINI ANIQLASH. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMYJ JURNALI*, 106-110.
10. Ibragimova, F., Ibragimov, D., Daminov, A., & Mamadullaev, G. (2024). The influence of drugs with a synergistic mixture of phencides on the intensity of invasion, morphological blood parameters and leukocyte formula in chicken eimeriosis mixed with colibacillosis. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 118, p. 01007). EDP Sciences.